



UDK:81'276.6:355

**Mohinur AMRULLAYEVA,**  
*ToshDO'TAU doktoranti*  
E-mail:mohinuramrullayeva045@gmail.com

*TDO'TAU professori Z.Xolmanova taqrizi asosida*

### O'ZBEK TILIDAGI AYRIM FE'L-ATVOR FRAZEMALARI TADQIQI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi fe'l-atvor frazemalarining lingvistik xususiyatlarini, ularning semantik, stilistik va madaniy jihatlarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda frazeologik birliklarning xalq ruhiyati, milliy mentalitet va axloqiy qarashlar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Fe'l-atvor frazemalari sinonimiyasi, antonimiyasi hamda ularning badiiy va og'zaki nutqda qo'llanish xususiyatlari misollar asosida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Frazeologiya, frazema, fe'l-atvor, semantika, uslubiyyat, o'zbek tili.

### STUDY OF SOME VERB PHRASES IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Annotation

This article is dedicated to the in-depth study of the linguistic features of idiomatic phrases in the Uzbek language, their semantic, stylistic and cultural aspects. The study analyzes the interrelationship of phraseological units with people's psyche, national mentality and moral views. Synonymy, antonymy of verb phrases and their features of use in artistic and oral speech are considered on the basis of examples.

**Key words:** Phraseology, idiom, character, semantics, methodology, Uzbek language.

### ИЗУЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ГЛАГОЛЬНЫХ СЛОВ В УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Данная статья посвящена углубленному изучению языковых особенностей идиоматических словосочетаний в узбекском языке, их семантических, стилистических и культурологических аспектов. В исследовании анализируется взаимосвязь фразеологизмов с психикой народа, национальным менталитетом и нравственными взглядами. На основе примеров рассматриваются синонимия, антонимия глагольных словосочетаний и особенности их употребления в художественной и устной речи.

**Ключевые слова:** Фразеология, фразеологизм, характер, семантика, методика, узбекский язык.

**Kirish.** Frazeologiya – tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda tayyor iboralar, ya'ni frazeologik birliklar, ularning tuzilishi, ma'nosi va qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi. Frazeologik birliklar tilning boyliklaridan biri bo'lib, xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odati va qadriyatlarini aks ettiradi. O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalariga Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, K.Bozorboyev, A. Mamatov, A.Rafiyev, B.Yo'ldoshev, Q.Hakimov kabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan.

Frazeologik birliklar quyidagi xususiyatlarga ega:

Ma'nodosh so'zlar kabi o'xshash frazemalarning bo'lishi;

Birikmaning umumiy, ko'chma ma'no ifodalashi;

Tuzilmasining tayyor bo'lishi;

Grammatik jihatdan bo'laklanmasligi.

Fe'l-atvor frazemalari insonning ichki sifatleri, axloqiy va psixologik holatlari, ijtimoiy munosabatdagi xatti-harakatlarini ifodalaydigan iboralardir. Bunday frazemalar orqali til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning ijtimoiy-madaniy ongini ifoda etuvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, "burni osmonda", "tili zahar" kabi frazemalar shaxsning fe'l-atvori haqida tushuncha beradi.

Bu turdagi frazemalar quyidagi semantik guruhlariga ajratiladi:

Ijobiy fe'l-atvor: tili shirin, qo'li ochiq, ko'ngli ochiq;

Salbiy fe'l-atvor: ilonning yog'ini yalamoq, tili zahar, dimog'i shishmoq

Fe'l-atvor frazemalari o'zbek xalqining qadimiy axloqiy qarashlari, diniy e'tiqodi, qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning shakllanishi ko'p asrlik tajriba mahsuli hisoblanadi.

Frazeologik birliklar grammatik birliklardan quyidagi jihatlar bilan farqlanadi:

Mustahkamlik: frazemalar bir butun holatda ishlatiladi.

Ko'chma ma'no: ular so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan yiroq ma'noni bildiradi.

Ekspressivlik: gapga obrazlilik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Masalan, "ko'zini ochmoq" iborasi oddiy fizik harakat emas, balki ongli anglash jarayonini bildiradi. Bunday frazemalar muloqotda ko'proq obrazlilik, ta'sirchanlik va emotsional ifoda berish uchun ishlatiladi. Nutqda ulardan foydalanish vositasida inson xulq-atvori aniqroq, lo'nda va ifodali ko'rsatiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni, xususan, fe'l-atvor (xarakter) frazemalarini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada avvalo Sh.Rahmatullayev, A. Madvaliyev, N. Mahmudov, M. Jo'rayev, X. Tursunov singari olimlarning ishlarini alohida e'tirof etish mumkin. Ular o'z tadqiqotlarida frazeologik birliklarning leksik-semantik tahlili, ularning ifoda vositasi sifatidagi funksional xususiyatlari, uslubiyy bo'yloqlari haqida fikr yuritganlar. Fe'l-atvor frazemalari til egasining psixologik

holati, ijtimoiy pozitsiyasi va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi omil sifatida tahlil qilingan. A. Madvaliyevning asarlarida frazeologizmlarning sintaktik strukturalari, ularning qo'llanish konteksti va funksional yuklamalari keng yoritilgan.

Shuningdek, rus va ingliz tilshunosligida ham xarakter ifodalovchi frazeologik birliklarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar mavjud. Masalan, V. Vinogradov, A.V. Kunin kabi olimlarning ishlarida frazeologik birliklarning ma'no turlari, tarjimadagi ekvivalentlik muammolari, frazeologik o'ziga xosliklar tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar o'zbek tili uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Deskriptiv (ta'riflovchi) usul – frazeologik birliklar tuzilmasi, semantikasi va uslubiy xususiyatlarini tavsiflashda qo'llanildi.

Komponent tahlil usuli – frazemalardagi asosiy leksik birliklarning mazmunini ajratib ko'rsatishda ishlatildi.

Kontrastiv tahlil – o'zbek tilidagi fe'l-atvor frazemalari boshqa tillardagi o'xshash birliklar bilan solishtirish uchun qo'llanildi.

Kontekstual tahlil – frazeologik birliklarning matndagi vazifasini aniqlashda asosiy vosita bo'ldi.

Statistik usul – to'plangan frazeologik birliklarning tez-tez uchrash darajasini aniqlash uchun foydalanildi.

Ushbu metodlar orqali o'zbek tilidagi fe'l-atvor frazemalari semantik, morfologik va funksional jihatdan chuqur tahlil qilinib, ularning lug'aviy boylik sifatidagi o'rni aniqlab beriladi.

Natijalar va muhokama. O'zbek tilidagi fe'l-atvor frazemalari mazmun va ma'no jihatidan turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlash frazemalarning inson xulq-atvori bilan qanday bog'liqligini ochib beradi. Quyidagi asosiy semantik guruhlarni ajratish mumkin:

1. Ijobiy fe'l-atvor ifodalovchi frazemalar: Ko'ngli ochiq, tili shirin, qo'li ochiq, qo'y og'zidan cho'p olmaslik, ishning ko'zini bilmoq...

2. Salbiy fe'l-atvor ifodalovchi frazemalar: Yuzsiz bo'lmoq, ikkiyuzlamachi bo'lmoq, burni osmonda, dimog'i shishmoq, tili zahar, burnini suqmoq, jahli burnini uchida turmoq...

3. Betaraf yoki neytral fe'l-atvor ifodalari: Ko'z ochirmaslik, gapdan qolmaslik, boshini egmoq. Bu iboralar har doim ham ijobiy yoki salbiy emas, balki kontekstga bog'liq holda talqin qilinadi. Shuningdek, bir xil yoki o'xshash ma'noni ifodalovchi turli frazemalar mavjud. Masalan:

Ko'ngli ochiq ~ qo'li ochiq – saxiylikni bildiradi;

Tilidan bol tomadi ~ tili shirin – yoqimli so'zlashuv ifodasi;

Yuzsiz bo'lmoq ~ vijdonsiz bo'lmoq ~ uyalmas bo'lmoq – or-nomusni yo'qotganlik;

Burnini suqmoq ~ burnini tiqmoq ~ tumshug'ini tiqmoq ~ chovlisini solmoq – hamma narsaga aralashmoq;

Sinonimik frazemalar uslubiy boylikka xizmat qiladi, bir g'oyani turli obrazlar bilan ifodalash imkonini beradi. Qarama-qarshi ma'nodagi frazemalar orqali tilning mantiqiy va semantik tizimi namoyon bo'ladi. Ular ijtimoiy qadriyatlar ziddiyatini ham aks ettiradi:

Ko'ngli ochiq ~ ko'ngli tor

Tilidan gul to'kiladi ~ tili zahar

Boshi egik- burni osmonda

Yuzsiz bo'lmoq ~ yuziga qora suvlar yugurmoq (uyalish)

Shunday qilib, bu juftliklar orqali tilda axloqiy va madaniy qarashlarning ifodasi ko'zga tashlanadi. Ko'plab fe'l-atvor frazemalari faqat ma'noni emas, balki baholovchi funksiyani ham bajaradi. Masalan, "burni osmonda" – bu ibora orqali salbiy baho beriladi, odamning kibrli ekanligi

ta'kidlanadi. Shu bilan birga, "tili shirin" iborasi ijobiy bahoni bildiradi. Konnotativlikning asosiy jihatlari:

Emotsional baho (masalan: yaxshi odam – ko'ngli ochiq odam);

Etik-meyoriy baho (masalan: vijdonsiz bo'lmoq – salbiy axloqiy baho);

Estetik baho (masalan: tilidan gul to'kiladi – go'zal so'zlashuv).

Fe'l-atvor frazemalari ayrim hollarda kontekstdan kelib chiqib, o'z ma'no soyasini o'zgartirishi mumkin. Masalan: "Bosar-tusarini bilmaydi" iborasi bolaga nisbatan ishlatilsa, bu uning sho'xligi, katta odamga nisbatan esa – tartibsizligi, beodobliligi sifatida tushuniladi. Shuningdek, ba'zi frazemalar kinoya, istehzo orqali ishlatiladi, bu ham ularning semantik ko'lamini kengaytiradi. Fe'l-atvor frazemalari o'zbek adabiy tilining obrazlilik vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular badiiy adabiyotda, publitsistikada, og'zaki nutqda keng qo'llanilib, uslubiy rang-baranglikni ta'minlaydi. Uslubiy jihatdan bunday frazemalar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Obrazlilik yaratish: "Tilidan bol tomadi", "burni osmonda" kabi iboralar inson xatti-harakatini tasvirlashda kuchli ta'sirchanlik beradi.

Baholovchi ma'no berish: Masalan, "ko'ngli tor odam" iborasi salbiy bahoni, "qo'li ochiq odam" iborasi esa ijobiy bahoni bildiradi.

Ironiya va kinoya ifodasi: "Ko'ziga cho'p tushganini ko'radi, ko'zga tashlanadigan narsani ko'rmaydi" – bu kabi iboralar tanqidiy ohangda ishlatiladi.

Adabiy matnlar, ayniqsa nasr va poeziya janrlarida fe'l-atvor frazemalar keng qo'llaniladi. O'zbek yozuvchilarining asarlarida bunday iboralar personajlar xulq-atvorini ifodalashda, ularning ichki kechinmalarini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan: Abdulla Qodiriy asarlarida: "Tilidan zahar tomardi, ammo ko'ngli ochiq edi" kabi frazemalar qahramonning ziddiyatli xatti-harakatini ifodalashda ishlatiladi. O'tgan asr publitsistikasida esa: "Rahbarlarimiz ko'z ochirmaydi, xalq og'zidan nonini olib qo'yadi" kabi iboralar orqali tanqidiy pozitsiya bildirilgan. Fe'l-atvor frazemalari o'zbek xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va xalq dostonlarida ko'p ishlatiladi. Bunday iboralar orqali xalq o'z qarashlarini, qadriyatlarini, axloqiy normalarni ifodalagan: "Tiling shirin bo'lsa, dushmaning do'st bo'ladi"; "Ko'ngli tor odamdan yiroq yur"; "Qo'li ochiqning ishi o'ng" va boshqalar. Bu maqollar frazeologik birliklar asosida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. O'zbek tilidagi fe'l-atvor frazemalari xalqning ijtimoiy ongini, ma'naviyatini, axloqiy qarashlarini ifoda etadi. Ular orqali o'zbek xalqining qanday xulq-atvorni ma'qullashi yoki inkor etishini tushunish mumkin. Masalan: "Mehmondo'st", "ko'ngli ochiq", "shirinso'z" kabi iboralar qadrlanadi. Shuningdek "Ikkiyuzlamachi", "tili zahar", "burni osmonda" kabi frazemalar salbiy munosabatni ifodalaydi. Bu iboralarda xalqning ahloqiy meyorlari, ijtimoiy qadriyatlari mujassam. Bugungi kunda fe'l-atvor frazemalari zamonaviy nutqda ba'zida o'zgargan shaklda, qisqartirilgan yoki hazilomuz ohangda ishlatilmoqda. Masalan: "Qo'li kalta" iborasi zamonaviy tilda ba'zan "budjeti oz" deb ifodalanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda frazemalarning hazilomuz variantlari yoki yangi kontekstdagi qo'llanmalari paydo bo'lmoqda, bu esa ularning yangilanishiga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Mazkur maqolada o'zbek tilidagi fe'l-atvor frazemalari leksik-semantik, uslubiy va madaniy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Fe'l-atvor frazemalari o'zbek xalqining axloqiy qarashlari, turmush tarzi, milliy mentaliteti va qadriyatlarini

aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Ular orqali inson xulq-atvori, ijtimoiy munosabati, ruhiy holati obrazli ifodalanadi.

2. Fe'l-atvor frazemalari semantik jihatdan ijobiy, salbiy va neytral guruhlariga ajratiladi. Ular sinonimiya va antonimiya jihatidan boy bo'lib, baholovchi (konnotativ) xususiyatga ega.

3. Ushbu frazemalar uslubiy vosita sifatida badiiy adabiyotda, og'zaki nutqda va publitsistik matnlarda keng qo'llanilib, nutqga ekspressivlik va obrazlilik bag'ishlaydi.

4. Maqollar, hikmatli so'zlar va og'zaki ijod namunalari tarkibida fe'l-atvor frazemalari xalq

donishmandligining ifodasi sifatida xizmat qiladi. Ular tilning milliy o'ziga xosligini ta'minlovchi vositalardandir.

5. Zamonaviy nutqda ayrim fe'l-atvor frazemalari yangicha shakl va ohangda, qisqartirilgan yoki kinoyaviy kontekstda ishlatilmoqda. Bu holat ularning rivojlanishga ochiqqligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari o'zbek tilining frazeologik boyligini o'rganishda, frazeologik lug'atlar tuzishda va tilshunoslikning boshqa sohalariga oid izlanishlar olib borishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Madvaliyev A. O'zbek tilida frazeologizmlar. – T.: O'qituvchi, 2020.
2. To'rayev N. Frazeologiya va uning uslubiy xususiyatlari. – T.: Universitet, 2024.
3. G'ofurov N. O'zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2023.
4. O'zbek xalq maqollari va matallari to'plami. – T.: G'afur G'ulom, 2022.
5. Йулдашев В. Стилистические особенности фразеологических синонимов в произведениях Саида Ахмада. – Самарканд. Изд-во СамГУ. 1984, С-283
6. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-усlubий хусусиятлари. – Тошкент, 2007
7. Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Filol.fan. nom... diss.avtoref. – Toshkent, 2009
8. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: 2007. 65.
9. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирикмаларнинг асосий грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1955.
10. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фанл. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2000
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
12. Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Тошкент, 2008.